

MAKTABGACHA TA'LIMDA - OTA ONALAR HAMKORLIGI

Namangan xizmat ko'rsatish
va servis texnikumi
psixologi **U. Akbarova**
email: umida2573@gmail.com
telefon raqam: 93-495-25-73

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tizimida ota-onalar hamkorligi bolalarning har tomonlama yetuk barkamol shaxs sifatida ulg'ayishi qolaversa, ijtimoiy, ma'naviy va intellektual rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu annotatsiyada maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlikning asosiy jihatlari, uning bolalar tarbiyasiga ta'siri va amaliyotda qo'llaniladigan eng yaxshi usullar yoritilgan.

Abstract: Parental cooperation in the preschool education system plays a crucial role in the social, spiritual and intellectual development of children, as well as in their development as well-rounded individuals. This abstract highlights the main aspects of effective cooperation between preschool educational organizations and parents, its impact on child education, and the best methods used in practice.

Аннотация: Сотрудничество родителей в системе дошкольного образования играет важнейшую роль в социальном, духовном и интеллектуальном развитии детей, а также в их становлении как всесторонне развитой личности. В данной статье рассматриваются основные аспекты эффективного сотрудничества дошкольных образовательных организаций и родителей, его влияние на воспитание детей, а также наилучшие методы, используемые на практике.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bola, pedagog, ota-ona, intellektual, psixologik rivojlanish

Keywords: preschool education, child, teacher, parent, intellectual, psychological development

Ключевые слова: дошкольное образование, ребенок, педагог, родитель, интеллектуальное, психологическое развитие.

Maktabgacha ta'limda ota-onalar hamkorligi bolaning rivojlanishida juda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik nafaqat bolaning bilim va ko'nikmalarini oshirishga, balki uning ijtimoiy, hissiyot va psixologik jihatdan sog'lom rivojlanishiga ham yordam beradi. So'nggi vaqtlarda, yangi texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi, yoshlarning xususan, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining ta'lim tarbiyasiga ta'sir etmay qolmaydi. Yosh avlodning barkamol shaxs sifatida voyaga

yetishida farzandlarning maktabgacha ta'lim tashkiloti davridan boshlab tarbiyachi pedagog va ota-onalar hamkorligi muhim omil sanaladi. Ota-ona va pedagoglar o'zaro hamkorlikda ishlashi orqali bolada kuzatilayotgan kamchiliklar yokida rivojlanishida qanday muammolar kuzatilishi va ularni bartaraf etishda katta ko'mak bo'ladi. Qolaversa, ota-onalar bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi yaqin aloqa bola uchun ishonchli muhit yaratadi. Bola o'zini xavfsiz his qiladi, bu esa uning yangi narsalarni o'rganishga motivatsiyasini oshiradi.



Har bir bola o'ziga xos qobiliyat va ehtiyojga ega bo'lganligi sababli pedagoglar ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lishi, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, individual yondashuvini ishlab chiqishlari mumkin. Bunda, bog'cha psixologi, defektolog va pedagoglar tarbiyalanuvchilar uchun individual yondashuvni shakllantiradilar.

Bundan tashqari, tashkilotda ota-onalar uchun seminarlar, treninglar, turli qiziqarli loyihalar va tadbirlarni tashkil etilishi va bu tadbirlarda ota-onalar va farzandlarning faol ishtiroki bolaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bolaga jamoada ishlash, boshqalar bilan muloqot qilish va hissiyotlarini ifoda etish ko'nikmalarini beradi va eng asosiysi, ota-ona farzandi bilan birgalikda samarali vaqt o'tkazadilar. Bu kabi tadbirlar jumladan, "ota-onalar kuni" kabi loyihalar otaonalarining bolalar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha ta'limda ota-onalar hamkorligi bolaning muvaffaqiyatli kelajagini shakllantirishning asosiy omilidir. Bu hamkorlik bolaga nafaqat bilim, balki hayotiy qadriyatlar va ijtimoiy ko'nikmalarni ham beradi.

Muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z nutqida "Bog'chaga borgan bolamiz bilan bormagan bolamizning farqi qandayligini faqatgina onalar biladi, ayol biladi.Bu kundan e'tiboran shanba va yakshanba kunlari ota-onalarning bolani qabul qilish kuni"[1] ekanligini ta'kidlab o'tadi.Bu bilan davlatimiz rahbari ota-ona va farzand tarbiyasi qanchalik muhim masala ekanligini,bunga loqayd qarab turmasligimizni, va bolaning ta'lim tarbiyasini faqat pedagog xodimlarning zimmasiga yuklamay bu ishda ota-onalar hamkorligi muhim rol ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Ota-onalar bolaning qanday faoliyatlar bilan shug'ullanishini bilish orqali ularni uyda qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim bo'lgan motor ko'nikmalarini rivojlantirish, nutqini boyitish yoki ijodiy faoliyatini rag'batlantirish kabi sohalarida ota-onalar muhim rol o'ynaydi.Bu bilan ular ta'lim jarayoniga hissa qo'shgan bo'ladilar.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga faol ishtiroki bolalarning yutuqlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin . Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilalar o'rtasida mustahkam aloqalar o'rnatilganda, bolalar ijtimoiy moslashuvchanlik, kommunikatsiya qobiliyatlari va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini yaxshiroq rivojlantirishadi.

O'zbekistonning maktabgacha ta'lim sohasiga oid bo'lgan yagona "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida ham ota-onalar hamkorligiga alohida urg'u berib o'tilgan.

Ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida (tashkil etishda) ko'maklashish topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish va boshqalar[2].

Ota-onalar bog'chadan tashqari vaqtlarda ham farzand ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanishi bolani erta yoshdan intellektual qobiliyatini shakllanishida, aqliy, jismoniy taraflama sog'lom bo'lishida kata ahamiyatga egadir.

Xulosa qilinganda, maktabgacha ta'lim sohasida ota-onalar hamkorligi nafaqat ta'lim sohasida, balki maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda, MTTga oid qarorlar qabul qilishda, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etishda muhim o'rin egallaydi. Bu esa ota-onalarga bolalarini to'g'ri tarbiyalashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. «O'zbekiston 24» telekanalining «Axborot 24» dasturi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2022
2. "MTM bilan ota-onalar hamkorligining samarali usullari, maqsad va vazifalarining asoslari" Arziqulova S.F
3. Ta'lim tarbiyada MTM bilan ota-ona hamkorligi Surayyo Arziqulova
4. Bola tarbiyasida oila, maktab va mahalla jamoalarining tutgan o'rni

Internet manbaalari

1. <https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/940/840>
2. <https://library.ziyonet.uz/>